



IQTISODIYOTNING MUHIM TARMOQLARIDA QO‘SHMA LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISH MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Buyuk Britaniyaning sobiq Bosh vaziri, Global o‘zgarishlar instituti raisi Toni Blerni qabul qildi.



Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni ekspertlik jihatidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida Global o‘zgarishlar instituti bilan amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Toni Bler Yangi O‘zbekistondagi izchil va keng ko‘lamli transformatsiya jarayonlariga yuksak baho berdi. Yaqinda bo‘lib o‘tgan

Toshkent xalqaro investitsiya forumi yurtimiz investitsiyaviy jozibadorligini mustahkamlash, ishbilarmonlik aloqalarini rivojlantirish va istiqbolli tashabbuslarni ilgari surish uchun samarali xalqaro maydon bo‘lgani e‘tirof etildi.

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlarida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish,

yetakchi xalqaro texnologik kompaniyalar va yirik strategik investorlarni jalb etish hamda raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish, jumladan, ilg‘or innovatsion yechimlarni joriy qilish kelgusidagi hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilandi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON — AQSH O‘RTASIDA SAVDO-IQTISODIY MUNOSABATLAR YANADA MUSTAHKAMLANADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 25-iyun kuni Amerika Qo‘shma Shtatlarining Savdo vakili Jeymison Grirni qabul qildi.

Uchrashuv avvalida vakil mamlakatimiz yetakchisiga AQSH Prezidenti Donald Trampning samimiy salomi va ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston — AQSH strategik sheriklik munosabatlarini, avvalo, savdo-iqtisodiy sohada yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Ishbilarmonlik aloqalari faollashgani, o‘zaro tovar

ayirboshlash va investitsiya ko‘rsatkichlari barqaror o‘tib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Yaqinda bo‘lib o‘tgan Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida Amerika biznesi vakillari bilan o‘tkazilgan davra subhatining amaliy natijalari muhokama qilindi.

Mamlakatimizning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishi doirasida hamkorlik qilish va ushbu

jarayonlar kelgusida ham AQSH tomonidan qo‘llab-quvvatlanishiga alohida e‘tibor qaratildi.

Yangi loyihaviy tashabbuslarni aniqlash va ilgari surish uchun Amerika — O‘zbekiston ishbilarmonlik va investitsiya kengashi mexanizmidan samarali foydalanish muhimligi qayd etildi.

O‘ZA

QURILISH MATERIALLARI SOHASI SIFAT, STANDART VA NARX BO‘YICHA KOMPLEKS YECHIM TAKLIF QILADIGAN TARMOQQA AYLANTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 25-iyun kuni qurilish materiallari tarmog‘ida amalga oshirilayotgan ishlar va kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Davlatimiz rahbari asosiy masalaga o‘tishdan avval o‘tgan hafta yuksak saviyada o‘tkazilgan beshinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi yakunlariga to‘xtaldi. Forum doirasida xorijiy hamkorlar bilan 43 milliard dollarlik 177 ta kelishuvga erishilgani ta‘kidlandi.

— Har bir kelishuv loyihaga, ish o‘rniga, yuqori qo‘shilgan qiymatga aylanishi shart, — dedi Prezidentimiz.

Mutasaddilarga xorijiy investorlar tomonidan bildirilgan 120 ta taklifning yechimi bo‘yicha qaror loyihasini kiritish topshirildi. Umuman, tarmoq rahbarlari va hokimlar investitsiya sifati va samaradorligi bo‘yicha yondashuvlarini o‘zgartirishi zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

So‘nggi besh yilda yurtimizga kiritilgan jami investitsiyaning yarmi 4 ta hudud hissasiga to‘g‘ri kelgan. Lekin jalb qilingan

sarmoyaning iqtisodiyotga qaytimi bo‘yicha hududlar o‘rtasida katta tafovut bor. Shu bois, hokimlar qaysi tumanda qaysi tarmoqni qanday rivojlantirish, qaysi loyihaga investitsiya olib kelinsa, eng yuqori samaradorlikka erishish mumkinligini aniq hisob-kitob qilishi kerakligi qayd etildi.

[▶ Davomi 2-beta](#)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N I

MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN SOHA XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda so‘z va matbuot erkinligini rivojlantirish, xalqimizning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta‘minlash, davlat va jamiyat boshqaruvida ochiqlik va oshkoralik tamoyillarini mustahkamlashga qo‘shayotgan munosib hisssasi, global axborot maydonida milliy manfaatlarimizni himoya qilish, Yangi O‘zbekistondagi demokratik islohotlar,

yangilanish jarayonlari va erishilayotgan yutuqlarni keng yoritishdagi katta xizmatlari, zamonaviy jurnalistika uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash borasidagi samarali faoliyati hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar mukofotlansin:

“Mehnat shuhrati” ordeni bilan

Abdullayev Farxod Badalovich — “Sevimli” telekanalining “Eslab, eslab” loyihasi boshlovchisi

Kazakbayev Tulkun Muxitdinovich — O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a‘zosi, yozuvchi va publistist

[▶ Davomi 2-beta](#)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N I

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING 35 YILLIGI” ESDALIK NISHONINI TA‘SIS ETISH TO‘G‘RISIDA

Vatanimiz istiqlolining milliy dav-latchiligidagi roli va Yangi O‘zbekistonimizning bugungi hamda kelgusi taraqqiyotidagi ahamiyatini chuqur ang-lagan holda, O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligini mamlakatimizning ulkan salohiyati va jahon maydonidagi yuksak nufuziga munosib tarzda nishonlash uchun har tomonlama puxta tayyorgarlik ko‘rilmoqda.

Mustaqillik — mard va olijanob xalqimizning qat‘iy irodasi, istiqlo‘l yo‘lida kurash olib borgan fidoyi ajdodlarimizning jasorati va matonati bilan qo‘lga kiritilgan, Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan ezgu ishlarimizning asosi, kelajak avlodlarimiz uchun bezavol yetkazishimiz shart bo‘lgan buyuk va muqaddas qadriyatdir.

Aynan istiqlo‘l tufayli yangilangan konstitutsiyamiz hamda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi asosidagi taraqqiyot yo‘limiz yurtimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, inson qadr-qimmatini ulug‘lash, jamiyatimizda tinchlik va barqarorlik, do‘stlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, buyuk tariximiz

hamda milliy urf-odat va an‘analarimizni asrab-avaylash, mintaqamizda yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini qaror toptirish, mamlakatimizning xalqaro obro‘-e‘tiborini yuksaltirishda mustahkam asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shuning uchun ham amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida yurtimiz qiyofasi tubdan o‘zgarib, odamlarning ertangi kunga bo‘lgan ishonchi ortmoqda, ongu tafakkuri va dunyoqarashi yangilanmoqda.

Bu boradagi ishlarimizni izchil davom ettirish va yangi bosqichga ko‘tarish, shuningdek, mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, uning iqtisodiy qudrati va salohiyati, jahon maydonidagi nufuzini oshirishga munosib hissa qo‘shayotgan, o‘zining ko‘p yillik fidokorona mehnati, yuksak kasbiy mahorati va ijtimoiy

hayotdagi faol ishtiroki bilan el-yurt hurmatiga sazovor bo‘lgan vatandoshlarimizni munosib taqdirlash maqsadida:

1. “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi” esdalik nishoni ta‘sis etilsin.

2. “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi” esdalik nishonining Nizomi va tavsifi 1- va 2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi” esdalik nishonlari hamda ularning guvohnomalari belgilangan tartibda tayyorlanishini ta‘minlasin.

4. Mazkur farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari S.Sh. Mirziyoyeva zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2026-yil 25-iyun

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
2026-yil 25-iyundagi PF-118-son farmoniga 1-ilova*

“O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi” esdalik nishoni to‘g‘risidagi NIZOM

1. “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi” esdalik nishoni bilan mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, uning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy, ma‘naviy salohiyatini va mudofaa qudratini yuksaltirish, davlatimiz sarhadlari daxlsizligi va xalqimiz osoyishtaligini ta‘minlash, demokratik islohotlarni ro‘yobga chiqarishga munosib hissa qo‘shgan, Yangi O‘zbekistonning xalqaro miqyosdagi obro‘-e‘tibori va nufuzini oshirish, xorijiy hamkorlar bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni yangi bosqichga ko‘tarish, jamiyatimizda hukm surayotgan millatlararo do‘stlik va totuvlikni, tinchlik va barqarorlikni asrash, inson qadriini ulug‘lash borasidagi ishlarda siddiqildan xizmat qilayotgan, ko‘p yillik samarali mehnati bilan xalqimiz

farovonligini yuksaltirish, milliy madaniyatimiz va san‘atimizni rivojlantirish, sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, yoshlarimizni vatanparvarlik va istiqlo‘l g‘oyalarga sadoqat ruhida tarbiyalash yo‘lida tashabbus va ibrat ko‘rsatib kelayotgan yurtdoshlarimiz, barcha sohalar vakillari, mehnat faxriylari, harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari hamda boshqa shaxslar taqdirlanadi.

2. “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi” esdalik nishoni bilan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmagan shaxslar ham taqdirlanishi mumkin.

3. “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi” esdalik nishoni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki uning nomidan

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Raisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Spikeri, O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari, vazirlik, idora va jamoat birlashmalarining respublika organlari rahbarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, shuningdek, bunga vakil qilingan boshqa shaxslar tomonidan tantanali vaziyatda topshiriladi.

Mukofotlanganlarga esdalik nishoni bilan birga uning guvohnomasi beriladi.

4. “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi” esdalik nishoni ko‘krakning chap tomoniga davlat mukofotlaridan keyin taqiladi.

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
2026-yil 25-iyundagi PF-118-son farmoniga 2-ilova*

“O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi” esdalik nishoni TAVSIFI



“O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi” esdalik nishoni 0,25 mikron qalinlikda oltin bilan qoplangan mis qotishmasidan tayyorlanadi va diametri 34 millimetrlı doira shaklida bo‘ladi.

Esdalik nishonining umumiy balandligi 58 millimetrlı tashkil etadi.

Esdalik nishonining markazida, diametri 24,5 millimetrlı doira ichida “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida joylashgan “Istiqlol” majmuasi tasvirlangan bo‘lib, uning fonida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi va Samarqanddagi yangilangan Imom Buxoriy majmuasi aks ettirilgan.

Esdalik nishonining yuqori qismida balandligi 2,5 millimetr bo‘lgan “O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIGINING”, o‘rtasida balandligi 9,5 millimetr bo‘lgan “35” raqami va quyi qismida balandligi 2,5 millimetr bo‘lgan “YILLIGI” yozuvi, uning ikki tomonida esa dafna yaproqlari aks ettirilgan. Yozuvlar va yaproqlar zarhallangan.

Nishonning orqa tomoni markazida O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasvirlangan. Uning pastki qismida mustaqillikning o‘ttiz besh yilligini ifodalovchi “1991-2026” raqamlari yozilgan. Gerbning diametri 24 millimetr, raqamlarning balandligi 2,6 millimetr.

Esdalik nishoni ilgachalar va halqacha yordamida to‘rtburchak shaklidagi qadag‘ichga ulangan.

Qadag‘ichning eni — 24 millimetr, balandligi — 16 millimetr bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i ranglaridagi shoyi lenta bilan qoplangan.

Tasvirlar va yozuvlar qabariqdir.

Qadag‘ichning orqa tomoniga esdalik nishonini kiyimga taqib qo‘yish uchun to‘g‘nog‘ich ko‘rinishidagi moslama o‘rnatilgan.



27-iyun — Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni. Bu sana O‘zbekiston tarixida alohida o‘rin egallaydi. Zero, ushbu kun millatning axborot makonidagi o‘z o‘rnini anglash, so‘z erkinligi yo‘lidagi yutuqlarni qadrlash va kelajak uchun mas‘uliyatni his etish kunidir.

[▶ Davomi 3-beta](#)

QURILISH MATERIALLARI SOHASI SIFAT, STANDART
VA NARX BOʻYICHA KOMPLEKS YECHIM TAKLIF
QILADIGAN TARMOQQA AYLANTIRILADI

Boshlanishi 1-betda

Buning uchun iqtisodiyotdagi 12 ta tarmoqqa 14 ta “aql markazi”, 37 ta sohaviy ilmiy institut va oliygohlar nomma-nom birlashtirildi. Barcha tarmoq rahbarlariga “aql markazlari”, sohaviy ilmiy institut va oliygohlar bilan har bir tuman imkoniyatini oʻrganib, yalpi hududiy mahsulot oʻsishiga katta turtki beradigan loyihalar toʻplamini tayyorlash topshirildi.

Prezidentimiz qurilish materiallari sohasini quruvchining ishonchini qozonadigan, sifat, standart, assortiment va narx boʻyicha kompleks yechim taklif qiladigan tarmoqqa aylantirish lozimligini taʼkidladi.

Bundan 10 yil oldin mahalliy qurilish materiallari deganda asosan qum-shagʻal, gʻisht, sement, oyna va shifer tushunilar, bu esa qurilishda ishlatiladigan jami materiallarning nari borsa 30-40 foizini tashkil etar edi. Soʻnggi oʻn yilda sohaga 12 milliard dollar investitsiya kiritilib, 4 mingdan ortiq zamonaviy korxona ishga tushirildi.

Natijada sement, oyna, bazalt, keramik buyumlar, gazoblok, quruq qorishmalar kabi asosiy turdagi 20 dan ortiq mahsulotlarga boʻlgan ichki talabni toʻliq qoplaydigan quvvatlar yaratildi. Issiqlik saqlovchi, kompozit materiallar, ekologik pardoqlash materiallari va pol qoplamalari kabi yuqori qoʻshilgan qiymatli yangi yoʻnalishlar jadal rivojlanmoqda.

Bugungi kunda yangi uy-joylar va sanoat binolari qurilishi uchun zarur materiallarning 98 foizini mamlakatimizda ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyildi. Natijada oʻtgan davrda sohada ishlab chiqarish hajmi 7 trillion soʻmdan 53 trillion soʻmga oshdi, eksport esa oʻtgan yili 1,2 milliard dollarni tashkil etdi. Eng muhimi, tarmoq import oʻrni bosishning muhim bosqichidan oʻtdi.

Yil boshida aholini uy-joy bilan taʼminlash boʻyicha katta dastur qabul qilingan edi. Unga koʻra, 2040-yilga qadar quriladigan uy-joylar sonini 2 karra oshirib, yiliga 280 mingga yetkazish, “Yangi Oʻzbekiston” massivlarini 61 tadan 120 taga koʻpaytirish reja qilingan.

Bundan tashqari, har yili 20-25 million kvadrat metr tijorat binolari foydalanishga topshirilmoqda. Uy-joy va tijorat binolarining oʻzi yiliga kamida 10 milliard dollarlik qurilish materiallariga talab yaratmoqda.

Toshkent xalqaro investitsiya forumida xorijiy hamkorlarga yana 27 milliard dollarlik infratuzilma loyihalari taklif qilindi. Jizzaxda atom elektr stansiyasi, Toshkent viloyatida 4-mis boyitish fabrikasi, Oʻrta Chirchiqda 20 million yoʻlovchiga xizmat koʻrsatish quvvatiga ega Yangi Toshkent aeroporti, Yangi Toshkentda 55 ming oʻrinli futbol stadioni, 282 kilometrli Toshkent — Samarqand avtomobil yoʻli kabi yirik loyihalarda ham, birinchi navbatda, qurilish materiallari zarur boʻladi.

Bunday yirik loyihalarda foydalaniladigan materiallarga standart, sifat va sertifikat boʻyicha yuqori talablar qoʻyilishi tabiiy. Shu bois, yirik loyihalarni mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan bogʻlaydigan yangi tizim yaratish zarurligi koʻrsatib oʻtiladi.

Yirik va megaloyihalarga sarmoya kiritayotgan investorlar import materiallarni olib kelishda qoʻshilgan qiymat soligʻidan ozod qilishni soʻramoqda. Shu bilan birga, bunday loyihalarga oʻz mahsulotini taklif qilish istagida boʻlgan mahalliy korxonalar ham koʻp. Ular qoʻshilgan qiymat soligʻi boʻyicha imtiyoz mahalliy mahsulotlarga ham qoʻllansa, sifat va standart boʻyicha raqobatga tayyor ekanini bildirmoqda.

Mutasaddilarga yirik va megaloyihalarga import hamda mahalliy mahsulotlarni yetkazib berishda teng sharoitni taʼminlash boʻyicha qaror loyihadini kiritish topshirildi.

Yigʻilishda hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish boʻyicha qabul qilingan ikki yillik dastur ijrosiga ham eʼtibor qaratildi. Dastur doirasida 34 ta yirik turizm obyekti, 1 mingdan ortiq joylashtirish vositasi, jumladan, 200 ta mehmonxona qurish reja qilingan.

Hokimlar hududlarida barpo etilayotgan mehmonxonalarda mahalliy materiallar ulushini kamida 95 foizga yetkazishi zarurligi qayd etildi.

Mamlakatimizda har yili oʻrtacha 65 ming yakka tartibdagi uy-joy qurilmogʻda, yana 200-250 ming xonadon taʼmirlanmoqda.

— Ochiq aytish kerak, hali koʻpchilik energiya tejamlor materiallarning afzalliklari haqida yetarlicha xabardor emas, — dedi Prezidentimiz.

Xonadonlarni isitishning oʻziga iqtisodiyotdagi jami gaz isteʼmolining 20 foizi, elektr energiyasining esa 11 foizi sarflanmoqda. Agar uyning fasad va tom qismi issiqlik saqlovchi material bilan qoplanga, energiya tejamlor oyna qoʻyilsa, energiya sarfi 30 foizgacha kamayadi.

Bu borada Fransiya va Buyuk Britaniya kompaniyalari ishlab chiqqan yangi loyihalash yondashuvi asosida Qamashi tumanida 4 ming xonadonli “Yangi Oʻzbekiston” massivi qurilmogʻda. Mazkur loyihada toʻliq energiya tejamlor mahalliy mahsulotlar ishlatilib, tannarx 20 foizga arzon tushadi, uyni isitish va sovitish xarajatlari 25-30 foizga qisqaradi.

Viloyat, tuman va shaharlar hokimlariga Qamashi tajribasi asosidagi yangi loyihalash yondashuvini oʻrganish topshirildi. Joriy yilda Yangi Oʻzbekiston qiyofasi olib kiriladigan 33 ta tuman va shaharda koʻp qavatli uy-joylar qurilishi faqat shunday yondashuv asosida amalga oshirilishi belgilandi.

Eksport masalasiga ham alohida toʻxtalib oʻtiladi. Qoʻshni davlatlar yiliga 13 milliard dollarlik qurilish materiallarini import qilmoqda. Markaziy Osiyo davlatlarining oʻziga eksportni qoʻshimcha 440 million dollarga oshirish imkoniyati borligi taʼkidlandi.

— Bir narsani bilinglar: tashqi bozorlarda kuchli raqobat, har bir dollar uchun kurash ketayotgan hozirgi sharoitda eksportni koʻpaytirish uchun noanʼanaviy yechimlar kerak, — dedi davlatimiz rahbari.

Ozarbayjon, Gruziya, Rossiya, Qozogʻiston, Qirgʻiziston kabi mamlakatlarda uy-joy va tijorat obyektlari qurish boʻyicha katta dasturlar amalga oshirilmoqda. Agar Oʻzbekiston uy-joy qurish boʻyicha ushbu davlatlarning ishonchli hamkoriga aylansa, bu elektronika, uy tekstili va mebel korxonalari uchun ham yangi eksport imkoniyatlarini ochadi. Shu bois, masʼullarga Boku, Tbilisi, Moskva, Ostona va Bishkekda 3-4 tadan namunaviy, energiya tejamlor uy modelini qurib, road-show oʻtkazish topshirildi.

Sohada energiya samaradorligini oshirish masalalari ham muhokama qilindi. Soʻnggi oʻn yilda qurilish materiallari korxonalari foydalanadigan shartli yoqilgʻi hajmi 2 karra kamaydi. Tarmoqdagi elektr isteʼmolining 65 foizi toʻgʻri keladigan 34 ta yirik korxonada energiya auditi oʻtkazilgani hisobidan oʻtgan yilning oʻzida 240 million kilovatt-soat elektr energiyasi tejaldi.

Lekin bu hali yetarli emasligi qayd etildi. Viloyat hokimlariga qurilish materiallari korxonalarini texnologik modernizatsiya qilish orqali energiya sarfini kamaytirish boʻyicha katta dasturni boshlash topshirildi. Bunda istitish va quritish pechlari, tegimonlar va energiya sarfi yuqori boshqa uskunalarini energiya tejamlorlariga almashtirgan korxonalarga soʻmdagi kreditining 7 foizi, xorijiy valyutadagi kreditining 4 foizi kompensatsiya qilib beriladi.

Mamlakatimizda sement, bazalt, oyna, keramik plita kabi mahsulotlar boʻyicha yaratilgan quvvatlar 2035-yilgacha boʻlgan ehtiyojlarni qoplashga yetarli. Endi investorlarni bunday mahsulotlarni koʻpaytirishga emas, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilib, yuqori qoʻshilgan qiymat beradigan loyihalarga jalb qilish kerakligi taʼkidlandi.

Qurilish materiallari korxonalariga sertifikat olish bilan bogʻliq barcha xarajatlarni toʻliq qoplab beruvchi tizim mavjud. Bu kabi imkoniyat boshqa birorta tarmoqda yoʻq. Lekin bunday sertifikatlarning yagona maʼlumotlar bazasi boʻlmagani uchun xaridorlar koʻproq oʻzi bilgan, xalqaro sertifikatga ega chet el tovarlarini tanlamogʻda.

Mutasaddilarga mahalliy va xorijiy sertifikat bor qurilish materiallarining elektron platformasini ishga tushirish, viloyat hokimlari bilan birga shu yilning oʻzida yana kamida 50 ta qurilish materiallari korxonasiga xalqaro sifat sertifikati olishda koʻmaklashish topshirildi.

Yigʻilish davomida mutasaddilarning hisobotlari, qurilish materiallari korxonalari vakillarining taklif va tashabbuslari tinglandi.

OʻZA

KUCHIMIZ – BIRLIKDA, ERTAMIZ
ESA HAMJIHATLIKDADIR

Koʻhna va navqiron Andijon zamini qardosh xalqlarni birlashtirib, umumiy madaniy merosimizni butun jahonga yana bir bor yorqin namoyon etmoqda. Andijon shahri 2026-yilda Turkiy dunyoning madaniy poytaxti deb eʼlon qilinishi munosabati bilan xalqaro anjuman gʻoyat yuksak saviyada, oʻziga xos shukuh bilan oʻtayotir.

Munosabat



Serdar CHAM,
Turkiya Respublikasi madaniyat va
turizm vaziri oʻrinbosari

Ushbu nufuzli tadbir nafaqat madaniy bayram, balki barcha turkiy xalqlarni birdamlikka, hamjihatlikka chorlovchi, oʻzaro doʻstlik va qardoshlik aloqalarini yangi, yuqori choʻqqiga olib chiquvchi muhim minbar boʻlib ham xizmat qiladi. Bu tarixiy jarayonning bevosita guvohi boʻlganimdan hamda mazkur nufuzli anjumanda ishtirok etayotganimdan bagʻoyat mamnunman.

Dildagi gaplar

Sanʼat yoʻlida qariyb 45-50 yildan buyon ishlab, bir qancha ustozlarni koʻrdim. Shu ustozlarimiz va ularga qoʻshilib biz — shogirdlar ham maqomga bugungi kundagidek eʼtibor qaratilishini orzu qilardik. “Qachon bizning ham yelkamizga oftob tegarkan, bizga ham alohida eʼtibor berilarmikan?” der edik. Davlatimiz rahbari lavozimga kirishgan dastlabki yillardanoq ilm-fan, madaniyat va sanʼat rivojiga jiddiy eʼtibor qaratga boshladi. Xususan, maqom sanʼati tarixida ham tub burilish yasaladi.

2017-yilda oʻzbek milliy maqom sanʼatini yanada rivojlantirishga oid qaror qabul qilinishi sohaga yangi qon bagʻishladi. Bebaho sanʼatimiz zamonaviy munosabatlarda doirasida yangidan, qayta rivojlana boshladi. 2018-yildan boshlab respublikamizning barcha viloyatlarida namunaviy maqom ansambllari tashkil etilib, ularga yosh, bilimdon ijrochilar jalb etildi va tajribali ustozlar ularga taʼlim-tarbiya berib kelmogʻda.

Buning samarasi yaqqol koʻrinib turibdi. Chunki avvallari aksariyat yoshlar katta ashulalarni aytmas edi. Bugun esa bunday ashulalarni maromiga yetkazib aytadigan





Abdulahad ABDURASHIDOV,
Oʻzbekiston xalq artisti

yoshlar koʻp. Bularning bari maqomni ulugʻlash borasida qilinayotgan ishlar hamda nufuzli xalqaro tadbirlar natijasidir.

Mana, uchinchi bor yurtimizda, goʻzal Namanganda oʻtkazilayotgan maqom anjumani munosabati bilan turli dunyo davlatlaridan vakillar jam boʻlib turibdi. Buning ortida qanchadan qancha mashaqqat tursa-da, bunday mezbonlik sharafigan gʻururlanmoqdamiz. Inson qoʻli yaratishi mumkin boʻlgan hayrotomuz ijod namunalarini koʻrib, maza qilyapmiz. Gullar shahri Namanganning “Yangi Oʻzbekiston” bogʻi madaniyat va sanʼatimizni namoyish etadigan koʻrgazmalar bilan yanada fayzli boʻlib ketdi.

Bu yilgi maqom anjumani doirasida xalqaro miqyosdagi qator mavzular va global masalalar koʻrib chiqilgani biz — soha vakillarini yanada ruhlantirdi.

Poytaxtda zamonaviy maqom markazi ochilishini aytamizmi, maqomchilarni ragʻbatlantirish maqsadida mukofot taʼsis etilishinimi yoki alohida jamgʻarma tashkil etish tashabbusi haqida gapiramizmi — bularning bari osongina boʻlib qoladigan ishlar emas. Shunday ulugʻvor vazifalar haqida ehsitish nasib qilganiga ming shukur. Prezidentimiz tomonidan menga “Mehnat shuhrati” ordeni berilishini esa nafaqat oʻzimga, balki butun soha vakillariga koʻrsatilgan eʼtibor namunasi deb bilaman. Mana shunday eʼtirof koʻrsatilayotgan bir paytda, biz — maqomchilar nimaga ishlamasligimiz kerak? Mana, endi davr keldi, deya belimizni mahkam bogʻlab, butun dunyoga milliy maqomimiz dovruqʻini taratishimiz darkor.

Maqomotda “ustoz-shogird” anʼanasini jonlantirish ham biz — ustozlarning sharafli vazifamizga aylanishi kerak. Qarang, endi Buxoroda “Buzruk” maqomi, Samarqandda “Rost” maqomi, Xivada “Xorazm” va “Iroq” maqomlari, Qoʻqonda “Navo” maqomi, Shahrisabzda “Dugoh” maqomi hamda Toshkentda “Segoh” maqomi boʻyicha turizm koʻchalari tashkil etiladigan boʻlyapti. Kafe va restoranlar, istirohat bogʻlari va xiyobonlarda maqom qoʻshiqlari doimiy yangrab turadi. Bunday oljanob ishlar, butun bir xalqning yuragidan joy oladigan xayrli tashabbuslar qachon boʻlgan?

Shunday ekan, millatimizning betakror maʼnaviy merosi, mumtoz musiqa sanʼatimiz gultoji boʻlgan maqomlarimiz bilan faxrlanish barobarida ularni boyitishga va kelajak avlodga bezavol yetkazishga oʻz hissamizni qoʻshaylik!

Mulohaza

Hech o‘ylab ko‘rganmisiz, inson kitob o‘qish, yangi bilimlarni o‘zlashtirishni boshlaganda dastlabki paytlarda nega boshida og‘riq paydo bo‘ladi? Olimlarning ta’kidlashicha, bu paytda miyaga odatdagidan ko‘proq qon boradi. Qon bilan ozuqa, kislorod ko‘proq tashiladi. Natijada miyadagi katta-kichik qon tomirlari kengayib, miyaning hajmi ham muayyan darajada o‘zgaradi. Kengayish tabiiy ravishda og‘riq hissini beradi.

Odami jismoniy mashqlarni boshlaganda ham qo‘l, oyoq, beldagi mushaklarda og‘riq paydo bo‘ladi. Mashq qilavergach, mushaklari yuklamaga moslashadi, keyin mashqlar tanaga huzur bag‘ishlaydi, sababi tana a‘zolariga ko‘proq qon, qon bilan ozuqa, kislorod boradi. Bora-bora inson jismoniy mashq qilmasa, o‘zini yaxshi his qilmaydigan bo‘lib qoladi.

Miya ham xuddi shu tartibda rivojlanadi. U o‘zining asosiy mashqi bo‘lgan kitob o‘qish, bilimlarni o‘zlashtirish bilan baquvvatlashadi.

Inson kitob o‘qiyotganida miyasi videotasvir tomosha qilish yoki audiokitob tinglashdan ko‘ra intensivroq ishlaydi. Jahondagi yirik institutlarda o‘tkazilgan bir qancha magnit-rezonansli tomografiya tadqiqotlari o‘qish va miya o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikni tasdiqlaydi. Chunki o‘qish jarayonida miyaning bir necha — ko‘rish po‘stlog‘i, nutq markazlari, tasavvur va xotira uchun javob beradigan sohalari faollashadi.

Shuningdek, yangi neyron aloqalar mustahkamlanadi va shakllanadi, natijada kognitiv jarayonlar yaxshilanadi. Boshqacha aytganda, kitob o‘qish orqali miyaning murakkab rivojlanishi sodir bo‘ladi, Nafaqat savodxonlik, balki

O‘zi hayot harakatdan iborat, harakat qilgan odam uzoq-uzoqlarga bora oladi. Qo‘l-oyoqlar, butun tana a‘zolari harakatga kelsa, ular uzoq vaqt yashaydi. Shuning uchun butun dunyoda insonlar jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanadi. Jismoniy mashq qilgan tana a‘zolari kuch-quvvatga to‘lib boraveradi. Ishlatilmagan tana a‘zosi esa oxir-oqibat yalqovlashib qoladi.

DUNYODA KITOB DAN YAXSHI DO‘ST YO‘Q

mantiq, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash ham shakllanadi.

Bundan tashqari, xotira va konsentratsiya yaxshilanadi, chunki o‘qiyotganda inson diqqatni jamlashi va hikoyaning turli tafsilotlarini eslab qolishi kerak. Empatiya rivojlanadi, ya’ni inson boshqalarning his-tuyg‘ularini yaxshiroq tushunishni o‘rganadi. Yana stress darajasi kamayadi. Atigi 6 daqiqa o‘qish stress gormoni — kortizol darajasini 68 foiz kamaytirishi tadqiqotlarda isbotlangan.

O‘qish jarayonida miyada bir vaqtning o‘zida vizual idrok ishlaydi, tasavvur faollashadi, so‘z va gaplarning semantik tahlili sodir bo‘ladi, xotira yaxshilanadi.

Miyaning samarali faoliyatini ta’minlaydigan neyronlar soni ko‘payadi, hayot so‘qmoqlarida ba’zan turli stressli holatlar, nomaqbul odatlar tufayli o‘zlashtirish qolgan neyronlar qayta jonlanadi. Miyaning axborot va ma’lumotlarni qabul qilish, tahlil etish va saqlash qobiliyati ortadi. Intellektual salohiyat ko‘tarila boshlaydi.

Kitob o‘qish tufayli har bir a‘zoning funksional vazifasini yaxshiroq bajarishi, me’yorda ishlashi uchun mas’ul miya bo‘lmalarining boshqarish xususiyati kuchayadi.

Bosiq va barqaror xarakter, asab, g‘azabni boshqarish ko‘nikmasi shakllanadi. Ichki bosiqlik tashqi xatti-harakatlarda namoyon bo‘ladi. Atrof-muhitda bo‘layotgan voqea, hodisalarni bosiqlik bilan qabul qilish, tahlil etish, shoshma-shosharlik bilan emas, vaziyatga qarab to‘g‘ri xulosa chiqarish iqtidori, sabr, iroda paydo bo‘ladi.

Ratsional fikrlash qobiliyati, tafakkur qilish ko‘nikmasi ortadi. Insondagi yomon, tushkun fikr-o‘ylar o‘rmini egzulik egallaydi, avvalgidan ko‘proq moddiy ne‘matlarni izlab topish imkoniyatlari ortadi.

Hayotning iqtisodiy va ma’naviy ta’minotini tashkil qilish uchun kerak



Shuningdek, yon-atrofdagilar bilan muomala madaniyati o‘sadi. Jamiyatdoshlar, mahalladoshlar, yoru birodarlar bilan o‘zini ko‘rsatib qo‘yish poygasiga kirishdek nomaqbul instinktiv istaklar o‘rmini bir-birini tushunib yashash, hurmat-izzat ko‘nikmasi egallaydi.

Insonning oila tutish, ro‘zg‘or yuritish, farzandlarni tarbiyalab voyaga yetkazish iqtidori yangi pog‘onaga ko‘tarila boshlaydi, oila uchun iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, avvalgidan ko‘proq moddiy ne‘matlarni izlab topish imkoniyatlari ortadi.

Hayotning iqtisodiy va ma’naviy ta’minotini tashkil qilish uchun kerak

bo‘lgan bilimlarni, kasb-hunarni o‘zlashtirish osonlashadi. Turmush chorahalarida yuzaga keladigan muammo va masalalarni yechish, qiyinchiliklarni ishonch bilan yengib o‘tish malakasi shakllanadi. Har bir ishni bajarishda sifat ko‘rsatkichlari yaxshilanadi.

Bundan tashqari, mas’uliyat hissi yangi pog‘onaga chiqadi. Doim kitob o‘qiydigan insonda mas’uliyat tuyg‘usi yelkaga yuk emas, balki oddiy hayot tarziga aylanadi. Iste’molchilik amaliyoti o‘rmini yaratuvchanlik qobiliyati egallaydi. Yangi mahsulot, texnologiyalarni kashf qilish iqtidori paydo bo‘ladi.

Hozir ko‘pchilik ijtimoiy tarmoqlardagi kichkina-kichkina postlarni o‘qishga odatlanib qolgan. Qisqa postlar qandaydir axborotlarni yetkazishga mo‘ljallangan, ular miya xususiyatini o‘stirishga deyarli xizmat qilmaydi, aksincha, kichik diapazonda ishlashga moslashtirib qo‘yadi. Miya keng diapazonda ishlashi uchun uni shunga majbur qilish kerak. Bu juda ham oddiy hayot haqiqati, inson tana a‘zolarining biologik, fiziologik yashash tarzi shunaqa.

O‘zi hayot harakatdan iborat, harakat qilgan odami uzoq-uzoqlarga bora oladi. Qo‘l-oyoqlar, butun tana a‘zolari harakatga

kelsa, ular uzoq vaqt yashaydi. Shuning uchun butun dunyoda insonlar jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanadi. Jismoniy mashq qilgan tana a‘zolari kuch-quvvatga to‘lib boraveradi. Ishlatilmagan tana a‘zosi esa oxir-oqibat yalqovlashib qoladi. Miya ham tananing bir a‘zosi sifatida ishlashga majbur qilinmasa, u qanday kuchaysin? Miyaning ham jismoniy, ham ruhiy tarbiyasi kitob o‘qish, yangi bilimlarni o‘rganishdir.

Shuning uchun yurtimizda kitobxonlikni ommalashtirishga keng e’tibor qaratilyapti. Yaqinda start olgan Milliy kitobxonlik harakati bu borada yangi bosqichga ko‘tarilishni ta’minlashi shubhasiz.

Keng kitobxonlik madaniyati targ‘iboti ortida farzandlarimizning baxtli, munosib hayoti, ularni katta va yorqin hayotga tayyorlash maqsadi yotibdi.

Farzandim kelajakda yaxshi yashasin, iqtisodiy-madaniy rivojlangan jamiyatda o‘zining munosib o‘rmini topsin degan otanonalar farzandlarini kitob o‘qish, yangi bilimlarni o‘zlashtirish sari yetaklashi shart. Shunda ular maqsadiga erishadi. Zero, dunyoda kitobdan yaxshi do‘st yo‘q.

Mizrob BO‘RONOV, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Mushohada



Yashash faqat kun o‘tkazishdan iborat emas, u ma’no izlash, qadriyatlariga suyanish, o‘zlikni saqlash, shuningdek, farzand tarbiyasida, mehnatda va munosabatlarda o‘z izini qoldirishdir. Axir inson hayoti uning qanday vaqt o‘tkazgani emas, balki nima uchun yashagani bilan belgilanadi. Xo‘sh, biz bu tushunchalarni qayerdan o‘rganamiz?

Bir paytlardagi oddiy o‘zbek xonadonlarini eslaylik. Kechqurun oila davrasida, choy ustida dildan suhbatlar bo‘lardi. Kattalar hayotidan misollar keltirar, kichiklar esa tinglardi. Bu shunchaki vaqt o‘tkazish emas, balki tarbiya va ma’rifat edi. Birgina oddiy gap yoki nasihat kimningdir butun hayotiga ta’sir qilib, uni o‘zgartirib yuborishi mumkin edi.

Yana bir misol: ilgari kitob o‘qish faqat bilim olish vositasi emas, balki atrof-dagilarning hurmatini qozonishga sabab bo‘ladigan omil edi. Qishloqlarda ham, shaharlarda ham kitobxon va ziyoli odamga alohida ehtirom ko‘rsatilardi. Chunki u ilg‘or fikrlovchi hamda bilimli inson sifatida qadrlanardi.

Bugun-chi? Bugun o‘sha choy ustidagi suhbatlarning o‘rmini telefon egalladi. Bir xonadonda o‘tirgan odamlar bir-biri bilan emas, ekran bilan “suhbatlashmoqda”. Ular bir-birini eshitmaydi, lekin tarmoq orqali boshqalarni kuzatib, aksariyat hollarda bekorchilikdan ularning ortidan g‘iybat qiladi.

To‘ylarimizga nazar tashlaylik. Ilgari to‘yda qarindosh-urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilar diydorlashib, dildan samimiy suhbat qurar, yoshi ulug‘larning duosi olinardi. Asosiysi,

to‘yga elga dasturxon yozib siylash va diydor vositasi deb qaralardi. Bugun-chi? Bugun to‘ylarimizni yangicha udumlar o‘ylab topiladigan bellashuv maydoni desak ham bo‘ladi. Eng yomoni shuki, buni kattalarimiz, quda-andalarning o‘zi boshlab beryapti: kimdir uzuk taqqan, kimdir qudasining bo‘yniga puldan “marjon” osgan, yana birov umra ziyoratiga yo‘llanma sovg‘a qilgan.

Bu qatordan yoshlar qolib ketsa bo‘lmas! Ular ham ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan udumlarni o‘ylab topishmasa, zamon zamon bo‘lmay qoladigandek: qaysidir kuyov o‘z jufti bilan oqqush raqsiga tushmoqda, boshqa bir kelin kuyovga atab qo‘shiq



kuylamoqda, ayrimlari esa hammaning ko‘z o‘ngida tort tufayli kaltaklanmoqda. Hozir esa to‘y ko‘p hollarda shunchaki ko‘z ko‘z qilish marosimiga aylanib bormoqda: kim nima kiydi, isonda videolar olindi, ijtimoiy tarmoqqa qanday joylandi — shular muhimdek. To‘yning mohiyatida yashash emas, balki uni namoyish qilish asosiy o‘ringa chiqqan. Unutmaylik, to‘y odamlar uchun qilinsa, qadriyat, kamera uchun qilinsa, tomoshaga aylanadi.

Mahalladagi munosabatlar-chi? Ilgari qo‘shnining dardi ham, quvonchi ham umumiy bo‘lardi. “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” degan naqlga amal qilinib, haddidan oshish, kibrga berilish yoki ko‘z-ko‘zlash holatlari kuzatilsa, qo‘ni-qo‘shnilar dakki berardi. Natijada bugungidek ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan yangi udumlar urchimasdi.

Bugun esa bir-birini tanimaydigan qo‘shnilar ko‘p. Lekin shu insonlar tarmoq



orqali boshqa birovning hayotini soatlab kuzatishi mumkin. Afsuski, bu paradoks ijtimoiy hayotimizning bir qismiga aylanib ulgurdi. Bunday o‘zgarishlarni faqat “zamona zayli” deb tushuntirish oson. Lekin bu yerda yana bir chuqur jarayon turibdi: odamlar asta-sekin jamiyat ishtirokchisidan tomoshabinga aylanib bormoqda.

Nil Postman bir paytlar media jamiyatni ko‘ngilochar shakliga burib yuborayotganini ta’kidlagan edi. Bugun biz bu fikrning tasdiq‘ini o‘z hayotimizda ko‘ryapmiz: hatto jiddiy mavzular ham qisqa, ta’sirli, lekin yuzaki formatga aylanib qolmoqda.

Gi Debor esa jamiyat tomoshaguhga aylanadi degan edi. Buni tushunish uchun uzoqqa borish shart emas: ijtimoiy tarmoqlarda har kim o‘z hayotining borini emas, balki uning faqat eng chiroyli parchasini namoyish etadi. Boshqalar esa shu parchani yaxlit haqiqat deb qabul qiladi.

Buning psixologik ta’siri ham juda og‘ir. Yoshlar orasida tez mashhur bo‘lish istagi kuchayib boryapti. Sabr, mehnat va bilim kabi qadriyatlar orqaga surilyapti. Chunki ular tez natija bermaydi-da. Lekin ekrandagi muvaffaqiyat oson va tez qo‘lga kiritilgandek

ko‘rinadi. Yoshlar orasida tez mashhurlikka intilish shunchaki orzu emas, balki atrof-muhit ta’sirining samarasi. Chunki ular ko‘rayotgan dunyoda mehnat jarayoni emas, faqat natijada erishilgan yutuq namoyishi qilinadi.

Yana bir og‘riqli holat: kitob o‘qish kamaymoqda, biroq axborot iste’moli ortib bormoqda. Ya’ni inson ko‘p narsa ko‘ryapti, lekin kam narsani angliayapti. Bu esa fikrlash tarzining yuzaklashuviga olib keladi. Qisqa qilib aytganda, kitob insonni tafakkur qilishga undasa, ijtimoiy tarmoq uni shunchaki reaksiya bildirishga o‘rgatadi. Fikrlash sekin jarayon, reaksiya esa tezkor bo‘lgani uchun ko‘pchilik vaqtdan yutdik deb o‘ylab, haqiqiy yashash baxtini boy bermoqda.

Eng dahshatlisi shundaki, tug‘ilishi bilan onasi tomonidan qo‘lga telefon berib ovutilayotgan bugungi avlodning sog‘lig‘i va kelajagi xavf ostida. Chunki telefon bilan ovunayotgan yosh avlod orasida “raqamli autizm” (ekran oldida haddan tashqari ko‘p vaqt o‘tkazish natijasida jonli muloqot ko‘nikmalarining yo‘qolishi, empatiyaning pasayishi va atrof-muhitga qiziqishning kamayishi bilan tavsiflanuvchi holat), ko‘z

nurining xiralashishi kabi tashxislar sezilarli darajada ortib bormoqda. Endi tasavvur qilib ko‘ring: agar bu holat davom etsa, kelajak avlod qanday ahvolga tushadi? Bu haqida o‘ylashning o‘zi dahshat.

Ekran orqali ovutilayotgan bola jim bo‘lishi mumkin, lekin u odatdagidek rivojlanmaydi. Axir jonli muloqot, hissiy aloqa va atrof-muhitni o‘rganish bola uchun asosiy ehtiyoj va ruhiy ozuqa-ku! Agar bu ehtiyoj ekran bilan almashtirilsa, natijada muloqotdan qochadigan, empatiyasi past va diqqati tarqoq avlod shakllanadi.

Shu o‘rinda yuqoridagi savolni yana takrorlaymiz: agar shu tarzda davom etsak, kelajagimiz qanday bo‘ladi? Qadriyatlar qayerga yo‘qoladi? Milliy ruhni kim saqlab qoladi? Lekin eng muhim burilish bu savollarni o‘zimizga berishdan boshlanadi: men o‘zi nima qilyapman? Farzandimga nimani ko‘rsatyapman — ekrannimi yoki kitobni? Men suhbatni tanlayapmanmi yoki sukutni? O‘z hayotimni yashayapmanmi yoki faqat boshqalarnikini kuzatyapmanmi?

Chunki jamiyatni chetdan kimdir kelib o‘zgartirib bermaydi. Uni har kuni o‘z tanlovlarimiz orqali o‘zimiz shakllantiramiz.

Buning yechimi katta emas, lekin juda muhim: oilada jonli suhbatni yana tiklash — muhim islohot. Kitobni qo‘lga olish — ezgu kurash. Farzandga vaqt ajratish — kelajakka kiritilgan sarmoya. Mazmunli fikrni bo‘lishishning o‘zi ham bir ma’rifatdir.

Yana o‘sha savolni beramiz, lekin bu safar u yurakka yaqinroq jaranglaydi: biz haqiqatan yashayapmizmi yoki faqat tomosha qilyapmizmi?

Agar faqat tomoshabin bo‘lib qolsak, bizning o‘rimizga kim yashaydi? Agar biz qadriyatlarimizni asramasak, ularni kim saqlab qoladi?

Buning javobi og‘ir. Lekin u mavjud. Va u har birimizning kundalik tanlovimiz zahirida yashirangan.

Ahrror JABBOROV, jurnalist